

QO'SHILUVCHI NERV NEVROPATIYASI

Qo'shiluvchi nerv (n. *accessorius*) faqat harakat tolalaridan iborat bo'lib, bo'yintiriq teshik (*foramen jugulare*) orqali kalla bo'shlig'idan tashqariga chiqadi va to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon muskul (*m. sternocleidomastoideus*) bilan trapesiyasimon (*m. trapezius*) muskulni innervasiya qiladi. Qo'shiluvchi nerv yadrosining *kranial qismi* po'stloqdan ikki tomonlama innervasiya oladi va uning aksonlari boshni yon tomonlarga buruvchi *m. sternocleidomastoideus*ga boradi. Yadroning *spinal qismi* (C₁–C₅) po'stloqdan bir tomonlama (qarama-qarshi tomondan) innervasiya oladi va uning aksonlari yelka kamarini (kurak va o'mrov suyaklarini) ko'tarishda ishtirok etuvchi *m. trapezius* boradi.

Qo'shiluvchi nerv, asosan, kana ensefaliti, kraniospinal o'smalar, yon amiotrofik skleroz, siringomielobulbiya, motoneyron kasalliklari, kraniovertebral anomaliyalar, yallig'lanish kasalliklari, bo'yin-ensa sohasi jarohatlari va ushbu sohada limfa tugunlaridan biopsiya olganda zararlanadi. Qo'shiluvchi nerv innervasiya qiluvchi muskullar miasteniyasi, distrofik miotoniya, polimiozidlarda ham zararlanadi. Ba'zida nevropatiya sababi aniqlanmay qoladi va bunday holatlar *idiopatik nevropatiya* deb yuritiladi.

Zararlanish simptomlari. Qo'shiluvchi nerv bir tomonda zararlanganida, bosh o'sha tomonga og'adi va pastga bukilib, bemorning yelkasi ham osilib qoladi. Bemor boshini sog'lom tomonga burish va tepaga ko'tarishda juda qiynaladi, yelkasini yuqoriga ko'tara olmaydi. Biroz vaqt o'tgach, *m. sternocleidomastoideus* va *m. trapezius* da atrofiya rivojlanadi. Qo'shiluvchi nerv yadrosi ikkala tomonda ham zararlanganida, bemorning boshi pastga bukilib osilib qoladi, u boshini yon tomonlarga bura olmaydi. Bu holat kana ensefaliti uchun juda xos.

Manba: © Z. Ibodullayev. *Asab kasalliklari. 2-nashr. Darslik, Toshkent, 2021., 960 b.*

© Z. Ibodullayev. *Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.*

© Ibodullayev ensiklopediyasi

© www.asab.uz